

“KALOLA” OYATLARINI TAFSIR VA FIQH ASOSIDA TO‘G‘RI TUSHUNISH VA TALQIN QILISH

Surayyo Ibragimova

Tel: (+998 99) 860 81 70

surayyoibrohim@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Kalola” oyatlarini tafsir va fiqh asosida to‘g‘ri tushunish va talqin qilish muhokama qilingan. Mazkur maqolada Qur’oni karimdagi “kalola” oyatlari tafsir ilmi va fiqhiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Islom huquqining asosiy manbalaridan biri bo‘lgan Qur’on oyatlarini to‘g‘ri tushunish, ularning ma’no-mazmunini ochib berish hamda amaliy hayotda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, muomala, meros, talaq, jinoyat va boshqa huquqiy masalalarga doir oyatlar fiqhiy qoidalar asosida sharhlanganda, ular chuqur ijtimoiy va huquqiy mohiyat kasb etadi. Maqolada "kalola" atamasi va unga oid oyatlar tafsiriylar manbalar (Tabariy, Qurtubiy, Ibn Kasir va boshqalar) hamda fiqhiy mezonlar asosida tahlil qilinadi, mazkur oyatlarga nisbatan turli mazhablarning yondashuvlari solishtiriladi. Maqolaning maqsadi – Qur’on oyatlarining chuqur va to‘g‘ri talqin qilinishini ta’minlash orqali musulmon jamiyatida shar’iy ongini yuksaltirishga xizmat qilishdir.

Kalit soʻzlar: kalola oyatlari, tafsir ilmi, fiqhiy tahlil, qur'on tafsiri, shar'iy hukmlar, islom huquqi, din asoslari, oyatlarning sharhi, fiqh va tafsir munosabati, qur'oniy tushunchalar, shariat qonunlari, kalomiy tafsir.

“Agar bir erkak yoki ayol kalola holida meros qoldirsa, uning birodari yoki singlisi bo‘lsa, ulardan har biriga oltidan bir tegur. Agar ular bundan ko‘p bo‘lsalar, uchdan biriga sherikdirlar...”¹ (Niso surasi 12-oyat)

Ushbu oyati karimadagi “kalola” so‘zi haqida ulamolar ko‘plab bahs-munozaralar olib borganlar. O‘zbek tilida kalola so‘zini anglatadigan alohida bir so‘z yo‘q. Arab tilida ham bu so‘zning boshqa sinonimi uchramaydi. “Kalola” bolasi ham otasi ham yo‘q holda vafot etgan insondir. Ya’ni uning zurriyotlari va ajdodlari bo‘lmaydi, undan avval vafot etib ketgan bo‘lishadi yoki umuman farzand ko‘rmagan bo‘ladi. Bu so‘z arab tilidagi “كل” o‘zagidan yasalgan bo‘lib, “zaiflik” ma’nosi anglatadi. “كل الرجل” degan iborani zaiflashib, quvvati ketgan kishiga nisbatan ishlatiladi. Ba’zi ulamolar “kalola” farzandi yo‘q kishi deyдилar. Lekin jumhur ulamolar “kalola” zurriyotlari va ajdodlari yo‘q kishi ekaniga ijmo‘ qilganlar².

Abu Bakr Siddiq (roziyallohu anhu)dan odamlar kalola haqida so‘raganida:

“U haqida o‘z fikrimni aytaman, to‘g‘ri bo‘lsa, Allohdan, xato bo‘lsa, mendan va shaytondan,

¹ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf . Qur’oni karim va o‘zbek tilidagi ma’nolar tarjiması. –Toshkent: Hilol nashr, 2018. –B. 74

² Muhammad Ali Sobuniy. Al mavariys fish shariy’atil islamiyya fiy zov’il kitabi vas sunnati. – Karachi: Bushro, 2018. – B. 18.

ya'ni, Allohning va Uning Rasulining bunga aloqalari yo'q. Kalola zurriyot va ajdoddan boshqalardir", dedilar³ (Dorimiy rivoyati).

Bu hadisda "kalola" deb zurriyotlar va ajdoddan boshqalarga nisbatan ishlatilishi aytilgan. Qur'oni karimda "kalola" so'zi ikki o'rinda, Niso surasi o'n ikkinchi va bir yuz yetmish oltinchi oyatlarda kelgan.

Mayyitning aka-uka va opa-singillari faqat kalola holatdagina meros oladilar. Niso surasining oxirida "kalola" haqida ikkinchi marta oyat nozil qilingan va u "yoz oyati" nomi bilan mashhur bo'lgan. Chunki bu oyat nozil bo'lgan vaqtda yoz fasli edi. Niso surasidagi bir yuz yetmish oltinchi oyatda Alloh taolo shunday deydi:

"Sendan fatvo so'rarlar. "Alloh sizga kalola haqida fatvo berur", deb ayt. Agar bir odam o'lsa-yu, uning bolasi bo'lmasa, singlisi bo'lsa, unga marhumdan qolganning yarmi berilur. Agar singilning bolasi bo'lmasa, u hamma merosni olur. Agar singil ikkita bo'lsa, ular marhumdan qolganning uchdan ikkisini olurlar. Agar (merosxo'rlar) erkak-ayol birodarlar bo'lsalar, bir erkak ikki ayol hissasi asosida olurlar."⁴ (Niso surasi 176-oyat)

Jobir (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: **"Men bemor bo'lib o'zimni bilmay yotganimda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ustimga kirdilar. Bas, tahorat qildilar. U zotning tahorat suvlaridan ustimdan quyishdi va men hushimga keldim-da: "Ey Allohning Rasuli, mendan faqat kalola meros oladi, xolos", dedim. Shunda: "Sendan fatvo so'raydilar. "Alloh sizga kalola haqida fatvo berur", deb ayt", (Niso 176) oyati nozil bo'ldi"**⁵ (Buxoriy rivoyat qilgan.).

Boshqa bir rivoyatda Jobir (roziyallohu anhu), **"Ey Allohning Rasuli, molimni nima qilaman?"** deb so'raganlari keltirilgan. Ushbu sahobaning to'qqizta opa-singillari bor bo'lgan. Jobir (roziyallohu anhu) ularni kalola deb ataganlar. U kishing savollaridan so'ng Quyidagi oyat nozil bo'lgan.

"Agar bir erkak yoki ayol kalola holida meros qoldirsa, uning birodari yoki singlisi bo'lsa, ulardan har biriga oltidan bir tegur. Agar ular bundan ko'p bo'lsalar, uchdan biriga sherikdirlar..."⁶ (Niso surasi 12-oyat) oyatida zikri kelgan **"aka-uka yoki opa-singillar"**dan murod ona bir ota boshqa aka-uka va opa-singillardir. Ota-ona bir yoki ota bir aka-uka va opa-singillar boshqa oyatda keltirilgan. Bunga dalil Ubay ibn Ka'b va Sa'd ibn Abu Vaqqos (roziyallohu anhu)larning qiroatlari bo'lib, ular **"Va lahuu axun av uxtun minal umm"** deb qiroat qilar edilar⁷.

³ Abdulloh ibn Abdurahmon ad-Dorimiy. Sunani Dorimiy. –Arriyod: Darul mug'niy lin nash vat tavze', 2000. –J.IV. –B. 1944

⁴ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf . Qur'oni karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasini. –Toshkent: Hilol nashr, 2018. –B. 106

⁵ Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahihul Buxoriy. Arriyod: Baytul afkor ad duvaliyya lin nashr vat tavze'. 1998. –J.I. –B. 121

⁶ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf . Qur'oni karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasini. –Toshkent: Hilol nashr, 2018. –B. 74

⁷ Muhammad Ali Sobuniy. Al-mavariys fish shariy'atil islamiyya fiy zov'il kitabi vas sunnati. – Karachi: Bushro, 2018. – B. 17.

Ulamolar bu oyatdagi “aka-uka yoki opa-singil”dan murod ona bir aka-uka va opa-singillar ekaniga ijmo qilganlar. Bunga dalil – Alloh taolo Niso surasida aka-uka va opa-singillarning meroslarini ikki joyda zikr qilganidir. Biri o‘n ikkinchi va boshqasi bir yuz yetmish oltinchi oyatda keltirildi. O‘n ikkinchi oyatda aka-uka va opa-singillardan qaysi bir donasi qolgan bo‘lsa unga oltidan bir ulush tegishi aytilgan. Ikki yoki undan ko‘p bo‘lishganida esa uchdan bir ulushda teng sherik bo‘lishlari ta’kidlangan. Niso surasi oxiridagi boshqa oyatda esa bir opa yoki bir singilga ikkidan bir ulush, ikki va undan ko‘p opa yoki singil uchdan ikkida sherik bo‘lishlari aytilgan. Agar opa-singillar bilan birga aka yoki uka ham qolgan bo‘lsa bir erkakka ikki ayol ulushi berilishi kerakligi bayon qilingan. Demak, Niso surasi o‘n ikkinchi oyatdagi aka-uka va opa-singillar hamda Niso surasi bir yuz yetmish oltinchi oyatdagi aka-uka va opa-singillar boshqa-boshqa ekani ma’lum bo‘ladi. Ota-ona bir va ota bir aka-uka va opa-singillar ona bir aka-uka va opa-singillardan yaqinroq bo‘lganlari uchun ularga ko‘proq ulush berilishi lozim. Shu va boshqa dalillardan kelib chiqqan holda Niso surasi oxirgi oyat tug‘ishgan aka-uka, opa-singillar va ota bir aka-uka, opa-singillar haqida ekani ma’lum bo‘ladi.

Meros ilmi fiqh ilmining bir bo‘lagidir. Fiqhga doir ko‘plab asarlarda meros bobi ham kiritilgan. Keyinchalik meros ilmi alohida fan sifatida shakllanib, “faroiz” va yana boshqa bir nechta nomlar bilan ajralib chiqdi. To‘rt mo‘tabar mazhab ulamolari o‘rtasida eng kam ixtilof qilingan masalalar meros ilmiga oiddir. Chunki meros ilmi aniqlik ustiga qurilgan. Niso surasidagi 11, 12 va 176-oyatlarda kimlar merosdan qancha ulush olishi aniq aytilgan. Meros taqsimoti haqida vorid bo‘lgan hadislar ham sahif to‘plamlarda keltirilgan. Qur‘on va sunnatda kelmagan masalalar xususida esa ummatning ijmosi sobit bo‘lgan. Meros ilmida qiyos va undan keyingi darajadagi fiqhiy manbalarga hojat qolmagan. Yana bir ahamiyatli jihati meros ilmi zamon va makonga qarab o‘zgarishni umuman qabul qilmaydi. Boshqa fiqhiy masalalar zamonlar o‘zgarishi, vaziyatlarning turlicha bo‘lishiga qarab moslashishi mumkin, lekin meros taqsimotida bu tasavvur qilinmaydi. Chunki qiyomatga qadar vorislar bir xil bo‘ladi.

Har bir fanning o‘ziga xos istilohlari bo‘lgani kabi meros ilmida ham shunday terminlar talaygina. “Kalola” so‘zi ham aynan faroiz faniga xos bir atamadir. Kaloladan meros oladiganlar uch turdagi aka-uka va opa-singillardir.

Ular quyidagilar:

1. Mayyitning ota-ona bir aka-uka va opa-singillari
2. Mayyitning ota bir aka-uka va opa-singillari
3. Mayyitning ona bir aka-uka va opa-singillari

Ularni meros ilmi istilohida o‘zlariga xos nom bilan ataladi.

1. Banu ayon
2. Banu ‘allot

3. Banu axyof⁸

Niso surasidagi merosga oid 11, 12 va 176-oyatlarda Alloh taolo vorislarni uch qismga taqsimlagan.

1. Mayyitga hech bir vositasiz faqatgina qondoshlik, tug‘ishganlik rishtasi bilan bog‘langan vorislar. Bular farzandlar, nabira va undan pastdagi barcha zurriyotlar hamda, ota-onalar va ulardan yuqoridagi ajdodlar. Fiqh ilmida bu shaxslarni far‘lar va asllar deb nomlanadi.

2. Mayyitga vositasiz faqatgina nikoh aqdi bilan bog‘lanadiganlar. Bunday vorislarga er va xotin kiradi.

3. Mayyitga vosita orqali bog‘lanadiganlar. Ularni meros ilmida “kalola” deb ataladi.

Mayyitning ota-ona bir aka-uka va opa-singillari, ota bir aka-uka va opa-singillari, ona bir aka-uka va opa-singillari ushbu toifaga mansub. Ular mayyitga to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, ota-ona vositasida bog‘lanadilar⁹.

Ushbu uch toifaning quvvatiga qarab Alloh taolo ularni ketma-ket zikr qilib keltirdi. Avvalgi ikki qismga kiruvchi farzandlar, ota-ona, er-xotin kabi vorislar hajbi hirmonga¹⁰ uchrab hech qachon merosdan mahrum bo‘lib qolmaydilar. Uchinchi qism bo‘lmish mayyitning aka-uka va opa-singillari ba‘zan qisman, ba‘zan butunlay merosdan to‘silib qoladilar.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, Niso surasi o‘n ikkinchi oyatda mayyitning ona bir aka-uka va opa-singillarining merosdagi holatlari bayon qilingan. Shunga ko‘ra ular quyidagi tartibda meros oladilar.

1. Mayyitning otasi, bobosi, o‘g‘li, o‘g‘lining o‘g‘illari, qizi va o‘g‘lining qizlari bo‘lmagan vaqtda bir dona ona bir aka-uka yoki opa singil qolgan bo‘lsa unga merosdan oltidan bir ulush beriladi.

2. Mayyitning otasi, bobosi, o‘g‘li, o‘g‘lining o‘g‘illari, qizi va o‘g‘lining qizlari bo‘lmagan vaqtda ikki va undan ortiq ona bir aka-uka yoki opa singillar qolgan bo‘lsa ularga merosdan uchdan bir ulush beriladi. Bu ulushda erkak va ayol teng sherik bo‘ladi.

3. Mayyitning otasi yoki bobosi yoki o‘g‘li yoki o‘g‘lining o‘g‘illari yoki qizi yoki o‘g‘lining qizlari bor bo‘lsa “banu axyof”¹¹ merosdan to‘silib qoladilar¹².

Niso surasi bir yuz yetmish oltinchi oyatda zikri kelgan “banu ayon” va “banu ‘allot” lar quyidagi tartibda meros oladilar:

1. Mayyitning otasi, bobosi, o‘g‘li, o‘g‘lining o‘g‘li, qizi va o‘g‘lining qizi bo‘lmagan vaqtda bir dona ota-ona bir yoki ota bir opa-singil qolgan bo‘lsa merosning yarmini oladi.

⁸ Sirojiddin Muhammad ibn Muhammad Sajovandiy. Sharhus sirojiyya. – Istanbul: Sirach yayin evi, 2021. – B. 80.

⁹ Doktor Vahba Zuhayliy. At tafsiyr al munir fil aqiydat vash shariy’ati val manhaj. – Bayrut. Darul fikr, 2018. – J. II. – B. 612.

¹⁰ Hajbi hirmon– Vorisning boshqa bir voris sababidan butunlay merosdan to‘silib qolishi.

¹¹ Mayyitning ona bir aka-uka, opa-singillari.

¹² Sirojiddin Muhammad ibn Muhammad Sajovandiy. Sharhus sirojiyya. – Istanbul. Sirach yayin evi, 2021. – B. 81.

2. Mayyitning otasi, bobosi, o‘g‘li, o‘g‘lining o‘g‘li, qizi va o‘g‘lining qizi bo‘lmagan vaqtda ikki va undan ortiq ota-ona bir yoki ota bir opa-singil qolgan bo‘lsa merosning uchdan ikkisini oladilar.

3. Mayyitning otasi, bobosi, o‘g‘li, o‘g‘lining o‘g‘li, qizi va o‘g‘lining qizi bo‘lmagan vaqtda ota-ona bir yoki ota bir opa-singillar bilan birga ota-ona bir aka-uka yoki ota bir aka-uka **qolgan** bo‘lsa merosni bir erkakka ikki ayol ulushi nisbatida bo‘lishib oldadilar.

4. Mayyitning otasi, bobosi, o‘g‘li, o‘g‘lining o‘g‘li, qizi va o‘g‘lining qizi bo‘lmagan vaqtda ota-ona bir aka-uka yoki ota bir aka-uka **qolgan** bo‘lsa merosni hammasini oladilar¹³.

Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, kalola merosida mayyitga yaqinroq bo‘lgan aka-uka, opa-singillar uzoqrog‘ini merosdan to‘sib qo‘yishi mumkin. Masalan “banu ayon”lar “banu ‘alot”larni merosdan to‘sadilar. “banu axyof”lar farz egasi bo‘lganlari uchun ularni boshqa turdagi **aka-uka va opa-singillar merosdan to‘sa olmaydilar.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sirojiddin Muhammad ibn Muhammad Sajovandiy. Sharhus sirojiyya. – Istanbul. Sirach yayin evi, 2021. – B. 81.
2. Muhammad Ali Sobuniy. Al-mavariys fish shariy’atil islamiyya fiy zov’il kitabi vas sunnati. – Karachi: Bushro, 2018. – B. 19.
3. Doktor Vahba Zuhayliy. At tafsiyr al munir fil aqiydat vash shariy’ati val manhaj. – Bayrut. Darul fikr, 2018. – J. II. – B. 612.
4. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahihul Buxoriy. Arriyod: Baytul afkor ad duvaliyya lin nashr vat tavze’. 1998. –J.I. –B. 121
5. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf . Qur’oni karim va o‘zbek tilidagi ma’nolar tarjimasi. –Toshkent: Hilol nashr, 2018. –B. 74
6. Abdulloh ibn Abdurahmon ad-Dorimiy. Sunani Dorimiy. –Arriyod: Darul mug’niy lin nash vat tavze’, 2000. –J.IV. –B. 1944

¹³ Muhammad Ali Sobuniy. Al-mavariys fish shariy’atil islamiyya fiy zov’il kitabi vas sunnati. – Karachi: Bushro, 2018. – B. 19.